MAHALLIY RESURSLAR TUSHUNCHASI, IQTISODIY MOHIYATI, TARKIBI VA TASNIFI

Xaydarov Ravshan Xikmatullayevich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi va siyosati akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Tezisda «mahalliy resurslar» tushunchasining mazmuni, iqtisodiy mohiyati, tarkibi va tasnifi masalalari yoritilgan. Mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtirilib, mahalliy resurslarga hududda joylashgan, mahalliy hokimiyat organlari tasarruf etishi yoki ulardan foydalanishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tabiiy, moddiy, mehnat, moliyaviy, infratuzilma, institutsional va axborot resurslari majmui sifatida muallif ta’rifi berilgan. Mahalliy resurslarni kelib chiqishi, mulkchilik va tasarruf etish huquqi, qayta tiklanish darajasi, foydalanish holati va iqtisodiy aylanmaga jalb etilganlik darajasi kabi mezonlar bo‘yicha tasniflash taklif etilgan. Resurslarni hisobga olish va hududni rivojlantirishda ulardan kompleks foydalanish bo‘yicha xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *mahalliy resurslar, hududiy salohiyat, mahalliy budjet, tabiiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, resurslar tasnifi, mahalliy boshqaruv.*

Аннотация

В тезисе рассмотрены содержание, экономическая сущность, состав и классификация понятия «местные ресурсы». На основе обобщения научных подходов дано авторское определение местных ресурсов как совокупности природных, материальных, трудовых, финансовых, инфраструктурных, институциональных и информационных ресурсов, находящихся на территории и находящихся в распоряжении органов местной власти либо подверженных их влиянию. Предложена классификация местных ресурсов по критериям происхождения, собственности и права распоряжения, степени возобновляемости, состояния использования и степени вовлечённости в экономический оборот. Сформулированы выводы об учёте ресурсов и их комплексном использовании в развитии территории.

Ключевые слова: *местные ресурсы, территориальный потенциал, местный бюджет, природные ресурсы, трудовые ресурсы, финансовые ресурсы, классификация ресурсов, местное управление.*

Abstract

The paper examines the content, economic essence, composition and classification of the concept of “local resources”. Drawing on existing scholarly approaches, the author defines

local resources as the set of natural, material, labour, financial, infrastructural, institutional and information resources located within a territory that local authorities either control or can influence. A classification of local resources is proposed by origin, ownership and right of disposal, degree of renewability, state of use and degree of involvement in economic circulation. Conclusions are drawn on the accounting of resources and their integrated use in territorial development.

Keywords: *local resources, territorial potential, local budget, natural resources, labour resources, financial resources, classification of resources, local governance.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan ularning o‘z resurslaridan qanchalik samarali foydalanishiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish, yer va davlat mulkini elektron auksion orqali taqsimlash, «Tashabbusli budjet» mexanizmini joriy etish va «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida hududlarni mutanosib rivojlantirish vazifalarining belgilanishi [4] mahalliy boshqaruv organlarining resurslarga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda hokimliklar markazdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlovchi emas, balki hudud resurslarini aniqlovchi, baholovchi va iqtisodiy aylanmaga jalb etuvchi subyektga aylanmoqda.

Biroq iqtisodiy adabiyotlarda va normativ hujjatlarda «mahalliy resurslar» tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emas. Ko‘pincha u «mahalliy moliya», «mahalliy budjet resurslari» yoki «hududiy salohiyat» tushunchalari bilan aralashtirib qo‘llanadi. Bu esa resurslarni hisobga olish, baholash va boshqarish amaliyotida noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Tezisning maqsadi – mahalliy resurslar tushunchasining iqtisodiy mohiyatini aniqlash, tarkibini asoslash va tasnifini ishlab chiqishdan iborat.

Mahalliy resurslar tushunchasi va iqtisodiy mohiyati

«Resurs» atamasi fransuzcha ressource – «yordamchi vosita», «zaxira» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, iqtisodiyotda ishlab chiqarish va iste’mol uchun foydalaniladigan yoki foydalanilishi mumkin bo‘lgan barcha manbalarni anglatadi. Klassik iqtisodiy nazariyada resurslar yer, mehnat va kapital, keyinchalik esa tadbirkorlik qobiliyati sifatida ishlab chiqarish omillari tarzida talqin qilingan. A. Marshall ishlab chiqarish omillarining muayyan hududda to‘planishi tashqi samaralar va «sanoat okruglari» shakllanishiga olib kelishini ko‘rsatgan [7].

Hududiy iqtisodiyot nazariyasida resurslar alohida makon bilan bog‘langan holda ko‘rib chiqiladi. A.G. Granberg mintaqa iqtisodiyotini o‘rganishda tabiiy, demografik, ishlab

chiqarish va moliyaviy resurslarni hududiy salohiyatning tarkibiy qismlari sifatida ajratgan [11]. M. Porter raqobat ustunligining manbai sifatida nafaqat «tayyor» resurslarni, balki ixtisoslashgan, maqsadli yaratiladigan omillarni (malakali kadrlar, ilmiy-texnik infratuzilma) alohida ta’kidlagan [8]. R. Kamanyi esa hududiy raqobatbardoshlik konsepsiyasida bozor orqali sotib olib bo‘lmaydigan, faqat muayyan hududga xos bo‘lgan aloqalar, ishonch va institutlar kabi resurslarning ahamiyatini asoslagan [9; 15]. M. Storper bunday resurslarni «savdo qilinmaydigan o‘zaro bog‘liqliklar» deb atagan [10].

Fiskal federalizm nazariyasida (U. Outs, Ch. Tibu, R. Masgreyv) asosiy e’tibor mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy resurslariga qaratiladi: davlat xizmatlarini ko‘rsatish vakolati va uni moliyalashtirish manbalari bir boshqaruv darajasida birlashtirilishi kerakligi asoslanadi [12; 13; 14]. O‘zbekiston qonunchiligida mahalliy davlat hokimiyati organlarining resurslarga oid vakolatlari Konstitutsiya [1], «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonun [2], Budjet kodeksi [3], Yer kodeksi [5] va boshqa hujjatlarda belgilangan.

Yondashuvlarni umumlashtirib, mahalliy resurslarning iqtisodiy mohiyatini quyidagi belgilar orqali ifodalash mumkin:

– **hududiy bog‘liqlik** – resurs muayyan hududda joylashgan yoki shakllangan bo‘lib, uni boshqa joyga ko‘chirish imkonsiz yoki qimmat;

– **boshqaruv ta’sirida bo‘lish** – mahalliy hokimiyat resursni bevosita tasarruf etadi yoki undan foydalanish shartlarini (ijara, soliq stavkalari, ruxsatnomalar, yer ajratish) belgilash orqali ta’sir ko‘rsatadi;

– **iqtisodiy natija yaratish qobiliyati** – resurs hudud aholisi va xo‘jalik yurituvchi subyektlari uchun daromad, ish o‘rni yoki xizmat yaratadi;

– **o‘zaro bog‘liqlik** – resurslarning bir turi boshqasini harakatga keltiradi: masalan, yer va mehnat resurslarini infratuzilma va moliyaviy resurslarsiz to‘liq ishga solib bo‘lmaydi.

Shunga asosan, **mahalliy resurslar** – bu muayyan ma’muriy-hududiy birlik (viloyat, tuman, shahar, mahalla) chegarasida joylashgan, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarruf etadigan yoki ulardan foydalanish shartlariga ta’sir ko‘rsata oladigan hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun safarbar qilinishi mumkin bo‘lgan tabiiy, moddiy, mehnat, moliyaviy, infratuzilma, institutsional va axborot resurslarining majmuidir.

Ushbu ta’rif «mahalliy resurslar» tushunchasini «mahalliy moliyaviy resurslar» va «hududiy salohiyat» tushunchalaridan farqlash imkonini beradi. Mahalliy moliyaviy resurslar mahalliy resurslarning faqat bir qismi hisoblanadi. Hududiy salohiyat esa kengroq tushuncha bo‘lib, mahalliy hokimiyat ta’sir ko‘rsata olmaydigan respublika ahamiyatidagi resurslarni ham (masalan, strategik foydali qazilma konlari, respublika tasarrufidagi yirik korxonalar) o‘z ichiga oladi.

Mahalliy resurslarning tarkibi

Mahalliy resurslar tarkibini quyidagi yetti guruhga ajratish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval. Mahalliy resurslarning tarkibi

Resurslar guruhi	**Asosiy tarkibiy elementlari**	**Mahalliy hokimiyatning ta’sir vositalari**
Tabiiy	yer (qishloq xo‘jaligi va noqishloq xo‘jaligi yerlari, yaylovlar), suv, umumiy tarqalgan foydali qazilmalar, rekreatsiya resurslari	yer ajratish, ijara va auksion, yer va suv solig‘i stavkalariga koeffitsiyentlar
Moddiy (mulkiy)	kommunal mulk, davlat mulki obyektlari, bo‘sh binolar, uy-joy fondi	ijaraga berish, xususiylashtirish, foydalanishga berish
Mehnat	mehnatga layoqatli aholi, malakali kadrlar, band bo‘lmagan aholi	bandlik dasturlari, kasbga o‘qitish, «mahallabay» ishlash
Moliyaviy	mahalliy budjet daromadlari, transfertlar, budjetdan tashqari jamg‘armalar, aholi va korxonalar jamg‘armalari, kreditlar	soliq ma’muriyatchiligi, budjet xarajatlari, tashabbusli budjet
Infratuzilma	yo‘llar, kommunal tarmoqlar, ijtimoiy obyektlar, kichik sanoat zonalari	obodonlashtirish, investitsiya dasturlari
Institutsional	mahalliy boshqaruv tizimi, mahalla instituti, fuqarolik jamiyati, ishonch va hamkorlik aloqalari	davlat-xususiy sheriklik, jamoatchilik nazorati
Axborot	statistik va kadastr ma’lumotlari, raqamli platformalar, hududiy brend	ochiq ma’lumotlar, raqamlashtirish, hududiy marketing

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu guruhlar ichida moliyaviy resurslar alohida o‘rin tutadi, chunki ular boshqa resurslarni safarbar qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar boshqa resurslardan foydalanish natijasida shakllanadi: mahalliy budjetning asosiy daromad manbalari – yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer qa’ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar, davlat mulkini ijaraga berish va sotishdan tushumlar [3; 6] – bevosita tabiiy

va moddiy resurslar bilan bog‘liq. Bu holat mahalliy resurslarni yagona tizim sifatida boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalliy resurslarning tasnifi

Mahalliy resurslarni boshqarish amaliyoti uchun ularni turli mezonlar bo‘yicha tasniflash muhim ahamiyatga ega (2-jadval).

2-jadval. Mahalliy resurslarning tasnifi

Tasniflash mezoni	Resurslar turlari	Boshqaruv uchun ahamiyati
Kelib chiqishi	tabiiy; antropogen (inson faoliyati natijasida yaratilgan)	tabiiy resurslarni saqlash va antropogen resurslarni ko‘paytirish choralarini farqlash
Mulkchilik va tasarruf etish huquqi	mahalliy hokimiyat tasarrufidagi; respublika tasarrufidagi, lekin hududda joylashgan; xususiy	to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarish yoki soliq va tartibga solish orqali ta’sir ko‘rsatish
Qayta tiklanish darajasi	qayta tiklanadigan (suv, yaylov, mehnat); qayta tiklanmaydigan (foydali qazilmalar, yer maydoni)	foydalanish me’yorlari va rekultivatsiya talablarini belgilash
Foydalanish holati	foydalanilayotgan; foydalanilmayotgan (zaxira); yo‘qotilayotgan	zaxiralarni aniqlash va iqtisodiy aylanmaga jalb etish
Iqtisodiy aylanmaga jalb etilganligi	bozorda baholanadigan; bozorda baholanmaydigan (institutsional, ekologik)	narxlash, auksion yoki ijtimoiy baholash usulini tanlash
Harakatchanligi	ko‘chmas (yer, binolar); ko‘chma (kapital, malakali kadrlar)	ko‘chma resurslarni hududda ushlab qolish siyosati
Funksional vazifasi	ishlab chiqarish; ijtimoiy; boshqaruv	budjet xarajatlarini yo‘nalishlar bo‘yicha rejalashtirish

Manba: muallif ishlanmasi.

Taklif etilgan tasnifning amaliy ahamiyati shundaki, u resurslarni hisobga olish va baholashga tabaqalashtirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Masalan, «foydalanilmayotgan» toifadagi resurslar (bo‘sh yer uchastkalari, foydalanilmayotgan bino va inshootlar, band bo‘lmagan mehnat resurslari) hudud iqtisodiy o‘sishining eng yaqin zaxirasi hisoblanadi va

ularni aniqlash hokimliklar faoliyatining ustuvor vazifasi bo‘lishi lozim. «Respublika tasarrufidagi, lekin hududda joylashgan» resurslar esa mahalliy budjet uchun bevosita daromad keltirmasa ham, bandlik, infratuzilma va kooperatsiya aloqalari orqali hudud rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ularni mahalliy budjetga ajratmalar me’yorlari va hududni rivojlantirish dasturlari orqali mahalliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Bozorda baholanmaydigan institutsional resurslar – mahalla instituti, aholining o‘zini o‘zi boshqarish an’analari, ishonch va hamkorlik muhiti – O‘zbekiston sharoitida alohida ahamiyatga ega. «Tashabbusli budjet» va «mahallabay» ishlash tizimi aynan shu resurslarni moliyaviy va mehnat resurslarini safarbar qilishga xizmat ettirish namunasidir.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mahalliy resurslar – hududda joylashgan, mahalliy hokimiyat tasarruf etadigan yoki ulardan foydalanish shartlariga ta’sir ko‘rsata oladigan tabiiy, moddiy, mehnat, moliyaviy, infratuzilma, institutsional va axborot resurslarining majmuidir. Ularning iqtisodiy mohiyati hududiy bog‘liqlik, boshqaruv ta’sirida bo‘lish, iqtisodiy natija yaratish qobiliyati va o‘zaro bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi.

2. «Mahalliy resurslar» tushunchasi «mahalliy moliyaviy resurslar» tushunchasidan kengroq, «hududiy salohiyat» tushunchasidan esa torroqdir: u faqat mahalliy boshqaruv ta’sir ko‘rsata oladigan resurslarni qamrab oladi.

3. Mahalliy resurslarni kelib chiqishi, mulkchilik va tasarruf etish huquqi, qayta tiklanish darajasi, foydalanish holati, iqtisodiy aylanmaga jalb etilganligi, harakatchanligi va funksional vazifasi bo‘yicha tasniflash ularni boshqarishning tabaqalashtirilgan usullarini tanlash imkonini beradi.

4. Amaliyotda har bir tuman (shahar) uchun mahalliy resurslar reyestrini yuritish, foydalanilmayotgan resurslarni muntazam inventarizatsiya qilish va ularni iqtisodiy aylanmaga jalb etish natijalarini hokimliklar faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari tizimiga kiritish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. – https://lex.uz.
2. «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 02.09.1993-yildagi 913-XII-son. – https://lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 26.12.2013-yildagi O‘RQ-360-son. – https://lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son «“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. – https://lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. – Toshkent, 1998 (keyingi o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). – https://lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30.12.2019-yildagi O‘RQ-599-son. – https://lex.uz.
7. Marshall A. Principles of Economics. – London: Macmillan, 1890. – 754 p.
8. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
9. Camagni R. On the Concept of Territorial Competitiveness: Sound or Misleading? // Urban Studies. – 2002. – Vol. 39, No. 13. – P. 2395–2411.
10. Storper M. The Regional World: Territorial Development in a Global Economy. – New York: Guilford Press, 1997. – 338 p.
11. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 495 с.
12. Oates W.E. Fiscal Federalism. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972. – 256 p.
13. Tiebout C.M. A Pure Theory of Local Expenditures // Journal of Political Economy. – 1956. – Vol. 64, No. 5. – P. 416–424.
14. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959. – 628 p.
15. OECD. Territorial Outlook. – Paris: OECD Publishing, 2001. – 360 p.